



Categorial features of aspectuality in English and Uzbek languages

Mukhayyo DAVLATOVA¹

Bukhara State Medical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2024

Received in revised form

10 January 2024

Accepted 25 February 2024

Available online

25 May 2024

Keywords:

aspectuality,
component,
field,
syntactic unit,
action,
action type,
morphological forms,
semantics,
semantic field,
differential differentiation.

ABSTRACT

In the course of our study, we paid special attention to the category of aspectuality and, first of all, tried to determine whether there is a morphological category of verb types in English and Uzbek. In the study of verb meaning, the intended goal can be achieved only by addressing not only grammatically formed categorial units, but also all linguistic means expressing aspectuality. This is why specific theories and approaches of aspectuality have emerged, based on the composition of a particular language.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss2-pp336-341>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ingliz va o'zbek tillarida aspektuallikni kategorial xususiyatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

aspektuallik,
komponent,
maydon,
sintaktik birlik,
harakat,
harakat turi,
morfologik shakllar,
semantika,
semantik maydon,
differensial farqlanish.

Bu tadqiqotimiz davomida aspektuallik kategoriyasiga alohida e'tibor qaratib, eng avvalo ingliz va o'zbek tillaridada fe'l turlarining morfologik kategoriyasi mavjud yoki mavjud emasligini aniqlashga harakat qildik. Fe'ning tusga oid ma'nolarini tadqiq qilishda nafaqat grammatik shakllangan kategorial birliklar, balki aspektuallikni ifodalovchi barcha lisoniy vositalarga murojaat qilish orqaligina mo'ljallangan maqsadga erishish mumkin. Shuning uchun ham ma'lum til tarkibidan kelib chiqqan holda o'ziga xos aspektuallik nazariyalari, yondashuvlar yuzaga keldi.

¹ Head of the English Department, Associate Professor, Bukhara State Medical Institute. E-mail: hasanovnamuxa@gmail.com

Категориальные признаки аспектуальности в английском и узбекском языках

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

аспектуальность,
компонент,
поле,
синтаксическая единица,
действие,
тип действия,
морфологические формы,
семантика,
семантическое поле,
дифференциальная
дифференциация.

В ходе нашего исследования мы уделили особое внимание категории аспектуальности и, прежде всего, постарались определить, существует ли морфологическая категория типов глаголов в английском и узбекском языках. При исследовании значения глагола достичь намеченной цели можно, лишь обращаясь не только к грамматически образованным категориальным единицам, но и ко всем языковым средствам, выражающим аспектуальность. Именно поэтому возникли конкретные теории и подходы аспектуальности, основанные на составе определенного языка.

KIRISH

Aspektuallik nazariyasi keyingi yillarda jahon tillarida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki aspektuallik barcha tillarga xos universal hodisa ekanligi tan olingan. Har bir tilda harakatning zamonda rivojlanish va vaqt kesimida taqsimlanish xarakterini ifodalovchi vositalar mavjud (A.V. Bondarko; 1983, 76). Aspektuallik maydonining asosiy komponentlari orasida, eng avvalo, fe'lining tus (vid) grammatik kategoriyasi ko'rsatiladi. Bunda mazkur kategoriya bir xil mazmunga ega bo'lgan morfologik shakllar qatorini birlashtiruvchi sistema sifatida tushuniladi. Keyin ushbu komponentlarda chala grammatikalashgan turlar; harakatning boshlanishini anglatuvchi fe'lli birikmalar; qo'shimcha aspektuallik funksiyasiga ega sintaktik vositalar; holga taalluqli leksik belgilar, masalan: uzoq, darhol, doimo, sekin, birdaniga, tez-tez va hokazolar kiritiladi. Ayni paytda aspektuallik maydoni tarkibini aniqlashda har bir konkret tilda aspektual komponentlarning qaysilari hal qiluvchi o'rin tutishiga, mazkur tilda aspektual vositalarni o'z atrofiga birlashtiruvchi asosiy kategoriyaning belgilanishiga, umuman, aspektuallik maydonida aspektual ma'nolarni anglatuvchi eng muhim til vositalarga muhim ahamiyat qaratilmoqda.

TADQIQOTNING USULLARI

Aspektual ma'nolar tadqiqida zamon kategoriyasi ish-harakatning tashqi xossasini voqea-hodisani aniq vaqt kesimida sodir bo'lish jarayoni bilan bog'liq tarzda o'rganadi. Dissertatsiyada "aksionallik" atamasini aspektual sinflar (chegaralanganlik / chegaralanmaganlik) tasnifi (Yu.Maslov; 1984, 28–29. Yu.S. Maslov; 2004, 312. B. Rizaev, 1988/1999. G'. Mirsanov, 2009) hamda "harakat tarzi" (rus tilida "sposobi deystviya" nemis va ingliz tillarida Aktionsart) ning leksik-grammatik va, shuningdek, semantik kombinatsiyasi (I. Ivanova, 1961; Ye.V. Petruxina, 2000) natijasida yuzaga keladigan aspektual ma'nolarni guruhlashga nisbatan qo'llaymiz. Aspektuallik esa keltirilgan tushunchalar bilan bir qatorda, grammatik tus kategoriyasi, aksionallik hamda aksionsartning umumlashgan atamasi sanaladi. Shuning uchun ham aspektuallik o'ziga xos sathlarni qamrab olgan. Jumladan, aspekt grammatik sath hisoblanib, morfologik belgilar asosida tugallanganlik va tugallanmaganlik qarama-qarshi qo'yiladi; aksionallik – fe'ning leksik-semantik ma'nosiga ko'ra chegaralangan/chegaralanmagan guruhlarga

ajratiladi; harakat tarzi (g'arbda aksionsart, rus tilida esa sposoby deystviya atamallari bilan ma'lum) – predikatning leksik-semantik xususiyatlariga asoslanib tasniflanishi; sintaktik aspektuallik – faza fe'llarining boshqa til birliklari bilan modifikatsiyalanishi orqali harakatning boshlanishi, davomiyligi, tugallanganligi belgilanadi. Mazkur sathlardan aksionsart tasnifi eng munozaralilardan biri bo'lib qolmoqda. Ta'kidlab o'tish joizki, o'zbek tilshunosligida harakat tarzi atamasi umuman boshqa mazmunda talqin qilinadi. Xususan, yetakchi va ko'makchi fe'lli analitik shakllar harakat tarzi sifatida tadqiq etilgan ishlar ham mavjud (O. Shukurov, 2005). Shuning uchun ham keyingi o'rinlarda g'arb tilshunosligida qabul qilingan aksionsart atamasidan foydalanishni joiz deb topdik. Ingliz aspektologiyasida aksionsart tahlili asosan Z. Vendler amalga oshirgan tasnifga tayanadi.

Z. Vendler tasnifi ayni paytda fe'l aspekt turini belgilash imkoniyatini ham beradi: holatni va faoliyatni ifodalovchi fe'llar imperfektiv, ish-harakatni, natijani ifodalovchi fe'llar esa perfektiv turlardir. Z. Vendler tasnifining boshqa tasniflardan farqli xususiyatlarining biri shundaki, fe'lning perfektiv yoki imperfektiv bo'lishligi uchun ish-harakatning ichki (bajarilishi) yoki tashqi (erishiladigan natijasi) chegarasi bo'lishligi yoki bo'lmasligi (faoliyat – holat) kerak (Z. Vendler; 1967, 143–160). Bu o'z mohiyati bilan rus lingvistikasida shakllangan fe'lning tus xarakteristikasiga oid tushunchalarga o'xshab ketadi. Ikkinchi tomoni esa, fe'l ifodalagan ish- harakatning davomiyligi yoki bir zumda sodir bo'lishi hisoblanadi. Z. Vendler konsepsiyasini tadqiq qilgan olimlar gapning perfektivligi yoki imperfektivligini ifodalovchi qator vositalar tizimini ilgari suradilar (W. Croft; 2012, 49. B. Kortman; 1991, 27. C.S. Smith; 2003, 47). Bu vositalarni gapning strukturasiga, sub'ekt miqdoriga, to'ldiruvchi va hollarning turlariga bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar. Bunday konsepsiyada aspektual ma'no fe'l va uning atrofidagi komponentlarda aniqlanadi va fe'l tusini qat'iy grammatik kategoriya sifatida belgilashga zaruriyat tug'ilmaydi.

NATIJALAR

Aspektuallik maydonining tarkibi har bir konkret tilda aspektual komponentlarning qaysi biri asosiy o'rin tutishi, xususan, bu tilda tus kategoriyasining grammatik jihatdan rasmiylashtirilganiga bog'liq. Aspektologiya doirasida aspektual xususiyatlar faqatgina fe'l leksemasi bilan emas, balki predikativli yadroga ega bo'lgan vaziyat bilan bog'liq hisoblanadi. Bu borada aspektual ma'nolarning grammatik va leksik ko'rsatkichlariga qarab “aspektual fraza” va “aksional fraza” doirasida semantik belgilar farqlanadi (B. Rizaev, 1988). Bu o'rinda “aspektual fraza” zamirida harakat dinamikasining boshlang'ich, o'rta, yakuniy fazalarini ifodalovchi barcha til vositalar nazarda tutilsa, “aksional fraza” tushunchasida fe'l predikatsiyasi orqali voqealanuvchi minimal fraza asosida yotadigan chegaralanganlik va chegaralanmaganlik aniqlanadi (B. Rizaev, 1988. G'. Mirsanov, 2009). Aspektuallik tahlili g'arbda keng tarqalgan nazariyalardan biri M. Krifkaning xomomorfizm (homomorphism) “obyektdan voqelikka” qarashlariga asoslangan bo'lib, aspektual ma'nolarni aniqlashda ob'ekt (ega, to'ldiruvchi, hol) ning sifati, miqdori, o'lchov birligiga e'tibor qaratiladi (M. Krifika; 2001, 31). Mazkur yondashuv “aspektual kompazitsionallik” atamasi bilan ham yuritiladi.

Aspektual semantik maydon turli dinamik vaziyatlarni (fe'l leksemasining “ichki vaqt ko'rsatkichi”) tasvirlash usuli sifatida talqin etiladi. Aspekt va predikatning semantik (aspektual) turi esa aspekt va “harakatning bajarilishi” hisoblanadi. Ye. Paducheva rus va ingliz tilidagi aspektual predikatlarning davomli vaziyatlarini tipologik tasniflash va

kognitiv nuqtai-nazardan tahlil etish jarayonida ularni ikki katta turga ajratadi: TASHQI “perioda nablyudeniya” (kuzatish davri) tushunchasi va IChKI “lineynaya struktura situatsii” (vaziyatning tizimli strukturasi) (Ye.V. Paducheva; 2004, 46-57). O‘z navbatida, muallif vaziyatning tizimli strukturasi asosiy ko‘rsatkichlari sifatida prospektiv, progressiv, rezultativ, kompletiv, punktiv, limitativ kabi turlarni keltiradi. Muallifning ta’kidlashicha, perfekt “kuchsizlangan” rezultativ hisoblanib, uning asosiy semantik rivojlanishini immediant (zudlik), eksperiensial (tajribaga oid) va evidinsial (aniqlik) perfektlar tashkil etadi. Muallif, shuningdek, aspektni chegaralanmagan jarayon asosida “birlamchi” va “ikkilamchi” kabi turlarga ajratadi. Birlamchi turni ichki fazani anglatadigan durativlik (vaqt oralig‘idagi davomiylik) va progressivlik (jadallik) tashkil etsa, ikkilamchi aspekt xabituallis (odatiylik, takroriylik, shaxs harakatiga xos xususiyatni ifodalaydi) multiplikativlik (ko‘paytma) jarayonlaridan iborat (Ye.V. Paducheva; 1996, 23). Ye.V. Paducheva tomonidan ajratilgan taksonomik sinflar (ob’ekt, ob’ekt va substansiya, hodisa, jarayon, faoliyat, holat) (Ye.V. Paducheva; 2004, 54) ontologik kategoriya atamasini oladi.

Aspekt ma’nolari tadqiqi bilan shug‘ullanadigan tilshunoslarda fe’l birliklarini stativ va dinamik guruhlarga ajratish odat tusiga kirgan. Umumiy planda fe’llarni statik va dinamik guruhlarga ajratishda bir xil uslubga tayaniladi. Bu hol turli tillardagi fe’l sistemasini qiyosan tahlil qilganda kerakli natijani bermasligi mumkin. Chunki ba’zi tillarda holatni va holatga kirishishni anglatuvchi fe’llar alohida leksemalar bo’lsa (ingliz, rus tillari), boshqa tillarda ushbu ikki xil ma’no bir leksemada mujassam bo’ladi (o‘zbek tili). Holat va holatga kirishish ko‘makchi fe’l yoki kontekst doirasida farqlanadi. Ingliz aspektologi B. Komri fe’llarni leksik imkoniyatlariga qarab punktual (durativ, chegaralangan/chegaralanmagan (telic/atelic)), statik va dinamik kabi guruhlarga ajratadi (B. Comrie; 1976, 41).

B. Kortman ingliz tili fe’l tizimi tahliliga TAA (tense-aspect-aktionsart) uchligini tatbiq etadi. Mazkur uchlikning bosh maqsadi aspekt hamda zamon va aspekt hamda aksionsart o‘rtasidagi chegarani aniqlash sanaladi. Aspekt vaziyat bilan aloqador bo’lgan statik yoki dinamik, tugallanganlik yoki tugallanmaganlik, ya’ni yakunlangan vaziyat yoki berilgan vaqt jarayonida davom etayotgan, “mavjud” vaziyat sifatida tasvirlanadi (B. Kortmann, 1985). Aksionsart esa fe’l va predikat semantikasiga taalluqli bo’lib, vaqt imkoniyatlariga aloqador semantika hisoblanadi. Shuning uchun ham aksionsart predikatlari kompozitsional sanaladi, ya’ni aksionsart butun gap, ba’zan esa ergashgan qo’shma gaplarning pragmatik xususiyati sifatida ham qaraladi (Verkuyl, 1972. Declerck; 1979, 764. Brinton; 1988, 31). Aspektuallik borasidagi tadqiqotlar tor morfologik kategoriyadan boshlanib, sathlararo darajaga ko’tarildi va o‘z ichiga morfologiya, leksika va sintaksisni qamrab oldi. Bu kabi kengayish jarayoni aspektual dinamika terminologiyasining taraqqiyotida aks eta boshladi. Natijada vid (tus), harakat tarzi, aspektuallik, aspect, actionsart, chegaralanganlik, chegaralanmaganlik, inxoativlik (boshlanish), iterativlik (takroriylik), progressivlik, intensivlik, perfekt, rezultativlik va boshqa ko‘plab atamalar yuzaga keldi.

MUHOKAMA

Fe’l semantikasi tilda mavjud bo’lgan barcha vositalar bilan sintaktik-semantik munosabatda bo’ladi. Fe’lni o‘rab turgan barcha so‘zlar va sintaktik vositalar fe’l leksemasining reallikdagi ma’nolarini ochib beradi. T. Layfrink ta’kidlab o‘tganidek, alohida so‘z tirik, tabiiy tilda alohida ajralgan holda kelmaydi, balki matndagi boshqa

biror soʻz bilan munosabatda qoʻllaniladi (T. Laifrink; 1972, 8). Albatta, har bir leksik birlikning sintaktik sathda kategorial maʼnolari oʻzgaradi, leksik-semantik maʼnolar boyiydi. Soʻz va gaplarning nutqdagi sintagmatik differensial farqlanuvchi belgilari oshib boradi. Tildagi ushbu differensial belgilarning, semantik-sintaktik maʼnolarning oʻzgarishi, feʼllarning qoʻllanilishiga bogʻliq hisoblanadi. Bizga maʼlumki, feʼl semantikasi boshqa leksik grammatik sinflarga qaraganda, gapda, nutqda sintagmatik bogʻlanishi samaraliroq boʻlishi bilan bir qatorda, gap semantikasining boshqarilishiga, maʼnolar mazmunining oʻzgarishiga olib keladi. Feʼllarning leksik-semantik maydoni xilma-xil sintaktik shakl yasaliishi, gap semantikasining turli-tumanliligi bilan boshqa soʻz turkumlaridan ajralib turadi. Feʼllar leksik-semantikasining tahlili polisemantik masalalarni ochib berishda, semantik-sintaktik maydondagi strukturaviy komponentlar oʻrtasidagi aloqalarni aniqlashda muhim oʻrin tutadi. Taniqli oʻzbek tilshunos olimlari R. Rasulov, S. Muxamedovalar ham maqolalaridan birida soʻz maʼnosi xususida oʻz fikrlarini bildirib oʻtishadi: “Soʻzning maʼnosi, maʼno tarkibi mantiqiy boʻlaklardan tashkil topadi. Soʻzning maʼno tuzilishini oʻrganish, soʻz maʼnosining mantiqiy boʻlaklarini aniqlash, tarkibiy qismlarning xillarini belgilash, har bir semaning maʼno (sema) tarkibidagi oʻrni, ahamiyatini yoritish, boshqa semalarga boʻlgan munosabatini ochish maʼnolar orasidagi mantiqiy aloqani topishdir. Shunga koʻra, soʻzlarning oʻzaro paradigmatic va sintagmatik munosobatlarga kirishish, soʻzlar qatorini tuzish, paradigmatic munosabatdagi soʻzlarni bir-biridan farqlab turuvchi semalarni aniqlash, topish imkonini beradi (R. Rasulov, S. Muxamedova; 2002, 26-29). Maʼlumki, soʻz til birligi hisoblanadi. Soʻzning leksik maʼnosi uning predmet munosabatida ham aniqlanadi. Soʻzlarning predmet munosabatini aniqlashda ularni maʼno mazmuniga qarab biror guruhga birlashtirish mumkin. Bu kabi guruhlash soʻzlardagi maʼnolarning qarama-qarshi xususiyatlari, predmet munosabatini aniqlash, ularning biror grammatik sinfga tegishliligini, material (harakat, tovush harakati, harakat usuli va boshqalar) shaklini aniqlashga yordam beradi. Jumladan, feʼlning tuzilishi maʼnolar mazmunini oʻrganish, nutq vaziyatida voqelanishini ochib berishga koʻmaklashadi. Bu, oʻz navbatida, feʼlning aspektual maʼnolarini yoritishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Aspektual masalalarni hal etishda keyingi paytda tilshunoslar predikatlarning semantik tasnifiga keng eʼtibor qaratishmoqda. Chunki predikatlarning turli-tumanligi ularning zamon va aspekt koʻrsatkichlari bilan birikishi natijasida hosil boʻladi. Aspektual maʼnolarning turli sathlarda (grammatik kategoriya sifatida, leksik kategoriya, maydon nazariyasi, xususan funksional-semantik maydon) tadqiq etilishi, har xil tasniflarga ajratilishi (leksik guruhlash, leksik-semantik guruhlash, leksik-grammatik guruhlash (harakat tarzi)) barcha tillarda bir xilda masala mohiyatini ochib bera olmasligi koʻzga tashlandi. Albatta, keltirilgan tadqiqot yoʻnalishlari biror til doirasida olib borilishi aniqroq koʻzga tashlansa, boshqa til strukturasi mazkur yondashuv mos kelmasligi ehtimoli kuchliroq koʻzga tashlandi. Keyingi davrda aspektual tadqiqotlar kognitiv sathda (R. Langacker, 1999, T.V. Beloshapkova, 2008. Gʻ.Mirsanov, 2009), diskursda (M. Bittner, 2007), pragmatik doirada (Gʻ.Mirsanov, 2020) olib borilmoqda. Kognitiv nuqtai nazardan aspektuallikning konseptual asoslari, freym turlari, aspektuallikning prototip asoslariga aniqlik kiritilayotgan boʻlsa, diskursda aspektual mazmun ifodasiga eʼtibor qaratilmoqda. Pragmatik jihatdan referensial birliklar aspektual semantikasining muloqot jarayoniga taʼsiri va shu jarayonda aspektual mazmun ifodalari aniqlanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Brosig B. Depictives and resultatives in modern khalkh Mongolian // Hokkaidō Gengo bunka kenkyū. 2009. No. 7.–P. 71–101.
2. Bybee J. L., R. Perkins, W. Pagliuca. The evolution of grammar: Tense, aspect and modality in the languages of the world. – Chicago: The U. of Chicago Press, 1994. Carrier J., Randall J. H., The Argument Structure and Syntactic Structure of Resultatives // Linguistic Inquiry 23, 1992. –R. 173-234.
3. Goldberg A. Constructions: A Construction Grammar Approach to Argument Structure. L. – Chicago: The University of Chicago Press, 1995. –265 p. Davlatova, M. H. Relation of lexical-semantic structure of verbs in the linguistic essence. IEJRD-International Multidisciplinary Journal, 6(5).
4. Rizaev B. X. K probleme limitativno neytralnykh glagolov sovremennogo nemeskogo yazyka. // Lingvisticheskie issledovaniya: Aspekty grammaticheskogo analiza. – M., 1990. – S. 131-140.
5. Sayfullaeva R. R., Mengliev B. R., Boqieva G. H., Qurbonova M. M., Yunusova Z. H., Abuzalova M. Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2010. – 404 b.
6. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2008. – 286 b.
7. Safarov Sh. Semantika. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2013. – 341 b.
8. Sichinava D. V. Svyaz mejdu formoy i semantikoy perfekta: odna neizuchennaya zakonomernost // A. V. Bondarko i dr. (red.). Dinamicheskie modeli: Slovo. Predlojenie. Tekst. Sb. statey v chest Ye. V. Paduchevoy. M.: Yazyki slavyanskix kultur, 2008. –S. 711–749.
9. Suleymanova N. J., Lokativ kategoriyasining sintaktik semantik va deyktik xususiyatlari. Filol. bo'yich falsafa fan. dok. diss. avtoreferati. T., 2018. 21b.
10. Hasanovna, D. M. (2021). Linguistic and cognitive features of performing effective actions. World Bulletin of Social Sciences, 3(10), 41-44.
11. Davlatova, M. X. (2018). RABOTA NAD VIDEOTEKSTOM NA ZANYATIYAX ANGLIYSKOGO YAZYKA. Teoriya i praktika sovremennoy nauki, (4), 242-246.
12. Davlatova, M. (2020). ASPECTUAL AND LEXICO-SEMANTIC CLASSIFICATION OF VERBS. So'z san'ati xalqaro jurnali, 1.
13. Hasanovna, D. M. (2021). DIFFERENT ASPECTS OF RESULTATIVE STRUCTURES ACCORDING TO THEIR LINGUISTIC ESSENCE. Academicia Globe: Inderscience Research, 2(05), 475-479.
14. Hasanovna, D. M. (2022). Aspectual and lexical-semantic classification of verbs. JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 8(2), 116-121.
15. Shadmanov, K. B., Davlatova, M. H., Ostonsova, S. N., & Radjabova, A. T. (2020). ENGLISH RENAISSANCE: TRANSFORMATION OF 61 PHILOSOPHY UNDERSTANDING AS A FACTOR OF INFORMATION CULTURE DEVELOPMENT OF THE EPOCH. Cross-Cultural Studies: Education and Science, 5(1), 61-67.
16. Davlatova, M. X. Rabota nad videotekstom na zanyatiyax Angliyskogo yazyka. Teoriya i praktika sovremennoy nauki, 242-246.